



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO‘YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

UO‘T 616-039+619.98

OIV INFEKSIYALI BEMORLARDA KUZATILAYOTGAN OPPORTUNISTIK KASALLIKLARNING ETIOLOGIK TARKIBI



Tilayberdiyev SH.A.

Zomin tumani tibbiyot birlashmasi, tibbiyot fanlari doktori,

ORCID ID: 0009-0007-4584-3617.

E-mail: shuxrat.tilavberdiyev@mail.ru, tel.: +99890 1896399

Igamberdiyev B.N.

Respublika OITS ga qarshi kurashish markazi, E-mail: aids.uz@ssv.uz,

tel.: +998712769325



Umirov S.E.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi,

Alfraganus universiteti, tibbiyot fanlari doktori,

ORCID ID: 0009-0009-9858-0974.

E-mail: safarumirov11@gmail.com, tel.: +99890 135 89 78



Yusupov SH.R.

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent, Urganch davlat tibbiyot institutining “Yuqumli kasalliklar, epidemiologiya va fiziatriya” kafedrası mudiri.

ORCID ID: 0009-0000-7106-8780

Qisqacha bayoni

OIV INFEKSIYALI BEMORLARDA KUZATILAYOTGAN OPPORTUNISTIK KASALLIKLARNING ETIOLOGIK TARKIBI



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Tilavberdiyev SH.A., Igamberdiyev B.N., Umirov S.E., Yusupov SH.R.

Kirish. OIV in'ektsiyali bemorlarning hayoti uchun xavf tug'diruvchi asosiy sabab opportunistik infeksiyalar va ikkilamchi kasalliklar hisoblanadi. **Tadqiqotning maqsadi** OIV infeksiyali bemorlarda opportunistik kasalliklarning tarkibini baholash va laborator ko'rsatkichlarini tavsiflashdan iborat. **Materiallar va usullar.** Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali 121 nafar tasodifiy tanlab olingan bemorlarga taalluqli ma'lumotlar retrospektiv tahlil etildi. **Natijalar va ularning muhokamasi.** Bemorlarning jinsiy tarkibida erkaklar ulushi, ayollar ulushiga qaraganda 2 marta yuqori. Yosh guruhlar tarkibida 40-49 yosh guruhidagi shaxslar hisssasi ustuvor. Bemorlarning 83 nafarida (68,6%) ikkilamchi kasallik alohida holatda, 38 nafarida (31,4%) turli ko'rinishlardagi mikst holatida kuzatilgan. Alohida yoki boshqa opportunistik kasalliklar bilan qo'shilgan holda jami citomegalovirusli infeksiyalar 73,6%, pnevmocistoz 48,8% va traxeobronxial kandidoz 13,2% bemorlarda qayd etildi. OIV infeksiyali bemorlarda vujudga keladigan opportunistik kasalliklarning turi immunitet tanqisligi darajasiga bog'liq. Birga kechuvchi opportunistik kasalliklar soni oshishiga mutanosib ravishda OIV yuklamasining medianasi oshib boradi. **Xulosalar.** Ikkilamchi kasalliklar OIV infeksiyasining kechishiga va uning oqibatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, rivojlanish suratini tezlashtiradi va bemorlarning umrini qisqartiradi. Shu bois, OIV bilan kasallangan bemorlarni baholashda, olib borishda kompleks va integrativ yondashuv taqazo etiladi.

Tayanch so'zlar: OIV infeksiyasi, opportunistik infeksiyalar, pnevmocistoz, sitomegalovirus infeksiyasi, kandidoz, tarkibi, laborator ko'rsatkichlar

Аннотация

ЭТИОЛОГИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА ОППОРТУНИСТИЧЕСКИХ ЗАБОЛЕВАНИЙ У ВИЧ-ИНФЕКЦИОННЫХ ПАЦИЕНТОВ

Тилавбердиев Ш.А., Игамбердиев Б.Н., Умиров С.Э., Юсупов Ш.Р.

Введение. Оппортунистические инфекции и вторичные заболевания являются основной причиной угрожающих жизни осложнений у ВИЧ-инфицированных пациентов. **Целью** исследования было оценить состав оппортунистических заболеваний у ВИЧ-инфицированных пациентов и описать их лабораторные показатели. **Материалы и методы.** Ретроспективно проанализированы данные 121 случайно выбранного пациента с ВИЧ-инфекцией, осложненной оппортунистическими заболеваниями. **Результаты и обсуждение.** В половом составе пациентов доля мужчин в 2 раза выше, чем доля женщин. В возрастном составе преобладает доля лиц в возрастной группе 40-49 лет. У 83 пациентов (68,6%) вторичное заболевание наблюдалось в изолированном случае, у 38 (31,4%) — в смешанных вариантах с различными комбинациями. В изолированном виде и в сочетании с другими оппортунистическими заболеваниями, всего цитомегаловирусные инфекции были зарегистрированы у 73,6% пациентов, пневмоцистоз — у 48,8%, а трахеобронхиальный кандидоз — у 13,2% пациентов. Тип оппортунистических инфекций, возникающих у ВИЧ-инфицированных пациентов, зависит от степени иммунодефицита. Медианная вирусная нагрузка ВИЧ увеличивается пропорционально увеличению числа сопутствующих оппортунистических заболеваний. **Выводы.** Вторичные инфекции существенно влияют на течение и исход ВИЧ-инфекции, ускоряют прогрессирование заболевания и сокращают продолжительность жизни пациентов. Поэтому необходим комплексный и интегративный подход к оценке и лечению ВИЧ-инфицированных пациентов.

Ключевые слова: ВИЧ-инфекция, оппортунистические инфекции, пневмоцистоз, цитомегаловирусная инфекция, кандидоз, состав, лабораторные параметры.

Abstract



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

ETIOLOGICAL STRUCTURE OF OPPORTUNISTIC DISEASES IN HIV-INFECTIOUS PATIENTS

Tilavberdiev Sh.A., Igamberdiev B.N., Umirov S.E., Yusupov SH.R.

Introduction. Opportunistic infections and secondary diseases are the main cause of life-threatening complications in HIV-infected patients. **The aim** of the study was to assess the composition of opportunistic diseases in HIV-infected patients and describe their laboratory parameters. **Materials and methods.** Data from 121 randomly selected patients with HIV infection complicated by opportunistic diseases were retrospectively analyzed. **Results and discussion.** The proportion of men in the patient population was twice as high as that of women. The age group was predominantly 40-49 years. In 83 patients (68.6%), secondary disease was observed in isolation, while in 38 patients (31.4%), it occurred in mixed forms with various combinations. In isolation and in combination with other opportunistic diseases, cytomegalovirus infections were recorded in 73.6% of patients, pneumocystosis in 48.8%, and tracheobronchial candidiasis in 13.2%. The type of opportunistic infections occurring in HIV-infected patients depends on the degree of immunodeficiency. The median HIV viral load increases proportionally with the number of concomitant opportunistic infections. **Conclusions:** Secondary infections significantly impact the course and outcome of HIV infection, accelerate disease progression, and shorten patient survival. Therefore, a comprehensive and integrative approach to the assessment and treatment of HIV-infected patients is necessary.

Key words: *HIV infection, opportunistic infections, pneumocystosis, cytomegalovirus infection, candidiasis, composition, laboratory parameters.*

Kirish. Hozirgi vaqtda OIV infektsiyasi bilan kasallanish butun dunyo miqyosidagi o'ta ahamiyatli tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri sifatida e'tirof etiladi. OIV in'ektsiyali bemorlarning hayoti uchun xavf tug'diruvchi asosiy sabab opportunistik infektsiyalar va ikkilamchi kasalliklar hisoblanadi. Ularning rivojlanishi va kechishi asosiy kasallikning (OIV in'ektsiyasining) klinik ko'rinishini va og'irligini belgilaydi. OIV infektsiyali bemorlarni davolashning muvaffaqiyati va bemorlar umrining uzoqligi aynan ikkilamchi kasalliklarning o'z vaqtida tashxislanishiga bog'liq. Patologianatomik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, OIV infektsiyasida 90,0% o'lim holatlari orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi (OITS) bosqichida turli infektsiyalar, 10,0% holatda esa limfomalar va boshqa yuqumli bo'lmagan jarayonlar rivojlanishi bilan bog'liq [2, 3].

Kech tashxis qo'yish aksariyat opportunistik kasalliklarning aniq klinik va laboratoriya mezonlarining yo'qligi hamda tibbiyot xodimlarining OIV infektsiyasining kech bosqichlaridagi o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida xabardorligining pastligi bilan izohlanadi [7, 9].

OIV infektsiyasida ikkilamchi kasalliklarning shakli immunitet tanqisligi darajasi bilan belgilanadi, atipiklik va og'ir, progressiv kechish bilan tavsiflanadi. Superinfektsiyalar orasida aksariyat pnevmosistoz, mikozlar (kandidoz, kriptokokkoz, koksidioidomikoz), herpesvirus bilan bog'liq kasalliklar (simple herpes, herpes zoster, sitomegalovirus infektsiyasi, Epshtein-Barr virusi infektsiyasi, Kaposhi sarkomasi), bakterial infektsiyalar (tuberkulyoz, atipik mykobakterioz),



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

protozoozlar (toksoplazmoz, kriptosporidioz) hamda ularning turli darajadagi mikst holatlari qayd etiladi [1, 2, 4, 8].

OIV infektsiyali bemorlar soni oshgani sayin o'lim soni ham ortib boradi. Kelgusi yillarda bu muammo yanada keskinlashishi mumkin. Ayniqsa, bemorlar kasallikning kech bosqichlarida aniqlangan hollarda, kasallikning ikkilamchi asoratlari mavjud bemorlar soni ham mos ravishda oshib boradi, bu esa ko'pincha tibbiy muolajalar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, retrovirusga qarshi terapiya (RQT) qamrovining pastligi ham, OIV infektsiyali shaxslarda ikkilamchi kasalliklar rivojlanishiga ko'maklashadi [4].

OIV infektsiyasi bilan yashovchi bemorlarda jiddiy ikkilamchi kasalliklardan biri Pneumocystli pnevmoniya (PCP) hisoblanadi [5]. O'zbekistonda pnevmocistoz bilan kasallanish bo'yicha keng ko'lamli maxsus tadqiqotlar o'tkazilmagan bo'lib, faqat LIFE tizimidan foydalangan holda ularni taxminiy aniqlash bo'yicha ma'lumotlar mavjud [6]. Hisoblangan ko'rsatkichlar O'zbekiston Respublikasida pnevmosistozning potentsial ahamiyatli darajada tarqalganligidan dalolat beradi. Xususan, yuqorida keltirilgan LIFE tizimini qo'llab amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, O'zbekistonda 2014-yilda pnevmocistozli pnevmoniya bilan 6569 nafar bemor qayd etilgan bo'lib, kasallanish darajasi har 100 000 nafar aholiga 21,36 tani tashkil etgan, bu mazkur opportunistik infeksiyaning Rossiya Federatsiyasidagi kasallanish ko'rsatkichidan (100 ming aholiga 5,65 ta holat) deyarli 4 baravar ko'pdir [6].

Son'ngi yillarda OIV infektsiyali bemorlar ikkilamchi kasalliklarining turli etiologik shakllari bilan bir paytda zararlanish hodisasi ham tobora ko'paymoqda. Mazkur holat, ikkilamchi kasalliklarning tashxisotini, mos terapiyani o'z vaqtida amalga oshirilishini yanada murakkablashtiradi [8, 9].

Shunday qilib, taqdim etilgan ma'lumotlar OIV infektsiyali bemorlar o'rtasida opportunistik kasalliklarning sezilarli darajada tarqalganligini ko'rsatadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasida OIV infektsiyasi bilan yashovchi shaxslarda opportunistik kasalliklarning tarqalganligini, klinik-laborator xususiyatlarini o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga molik.

Tadqiqotning maqsadi OIV infektsiyali bemorlarda opportunistik kasalliklarning tarkibini baholash va laborator ko'rsatkichlarini tavsiflashdan iborat.

Materiallar va usullar. 2020-2021 yillarda Respublika OITS ga qarshi kurashish markazining ixtisoslashtirilgan kasalxonasida davolanishgan opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infektsiyasi tashxis etilgan shaxslar kogortasidan 121 nafar bemorlarga taalluqli



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

hujjatlar (statsionar bemorining kasallik tarixlari) tasodifiy tanlov asosida tanlab olindi (tasodifiy tanlanma) hamda ularning ayrim demografik ma'lumotlari va laborator ko'rsatkichlari retrospektiv tahlil etildi. Bemorlarda OIV infeksiyasi va u bilan bog'liq opportunistik kasalliklar klinik, laboratoriya (bakteriologik, serologik va molekulyar biologik) va instrumental tekshiruvlar asosida tashxis etilgan. Jumladan, bemorlarning barchasida (121 nafar) CD4+ hujayralarining miqdori va virus yuklamasi (VYu) aniqlangan.

Retrospektiv tahlil natijasida olingan ma'lumotlarni statistik qayta ishlash umum e'tirof etilgan usullarni qo'llab amalga oshirildi. Ko'rsatkichlar xatoligi (m), ko'rsatkichlar o'rtasidagi tafovutning statistik ahamiyatlili (p) hisoblandi.

Natijalar va ularning muhokamasi. O'zbekiston Respublikasi OITS ga qarshi kurashish markazining klinikasida 2020-2021 yillar mobaynida statsionar davolanishgan opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali bemorlar kogortasidan shakllantirilgan 121 nafar bemordan iborat tanlanmaning jinsiy tarkibida erkak jinsiga mansub shaxslarning hissasi ustuvor (1-jadval).

1-jadval

Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali bemorlarning jinsiy tarkibi, N=121, mutloq, %

Ko'rsatkich	Jins guruhlari				p
	Erkaklar		Ayollar		
	Mutloq	%±	Mutloq	%±	
Jinsiy tarkib	81	66,9±4,3	40	33,1±4,3	p<0,05

Tadqiq etilgan opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali bemorlarning jinsiy tarkibida erkaklar ulushi (66,9%), ayollar ulushiga (33,1%) qaraganda statistik ahamiyatli darajada – 2 marta yuqori bo'lib, OIV infeksiyasi bilan umumiy kasallanish tarkibida erkaklar ulushining ustuvorligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, mazkur nisbatga erkaklar o'rtasida sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa xavf omillariga (masalan, anamnezida sudlanganlik, giyohvand moddalarga tobeklik va spirtli ichimliklar suiste'moli va h.) duch kelganlar hissasining yuqoriligi ham muayyan darajada ta'sir etishi mumkin.

Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishiga doir ma'lumotlar 3-jadvalda keltirilgan (3-jadval).

2-jadval

Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyali bemorlarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi, mutloq, %

Yosh guruhlari	Miqdor		p
	Mutloq	%±	



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

20-29	1	0,8±0,8	p<0,05
30-39	36	29,7±4,1	p<0,05**
40-49	63	52,1±4,5	p<0,05*
50-59	21	17,4±3,4	p<0,05**
Jami	121	100,0	

* - barcha yosh guruhidagilar hissasiga qaraganda statistik ahamiyatli tafovut mavjud.

** - 20-29 va 40-49 yosh guruhidagilar hissasiga qaraganda statistik ahamiyatli tafovut mavjud.

Bemorlarning yosh guruhlari tarkibida 40-49 yosh guruhidagi shaxslar (52,1%) hissasi ustuvor bo'lib, boshqa yosh guruhidagilar hissasiga qaraganda statistik ahamiyatli darajada farq qiladi ($p<0,05$). Mazkur holat OIV ning birlamchi yuqishi aksariyat sodir bo'ladigan yosh qatlami (o'rtacha 25-35 yosh), va mazkur yosh qatlamida ikkilamchi kasalliklar rivojlanguniga qadar o'tadigan muddat davomiyligi (o'rtacha 10-15 yil) bilan belgilanadi. Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyalı bemorlarning yosh guruhlari tarkibida, o'z hissasiga ko'ra ikkinchi o'rinni 30-39 yosh guruhidagilar (29,7%) egallagan. Tadqiq etilayotgan bemorlarning yosh guruhlari tarkibida, navbatdagi o'rinni 50-59 yosh guruhidagilar (17,4%) egallagan bo'lsa, 20-29 yosh guruhidagilar atigi 0,8% ni tashkil etgan.

OIV infeksiyalı bemorlarda qayd etilgan opportunistik kasalliklarning etiologik tarkibida citomegalovirusli infeksiyalar etakhi mavqega ega. Jami tadqiq etilayotgan 121 nafar bemorlarning 89 nafarida (73,6%) citomegalovirusli infeksiyalar mavjudligi aniqlandi. Xususan, OIV infeksiyalı bemorlarda qayd etilgan opportunistik kasalliklarning etiologik tarkibida citomegalovirusli monoinfeksiya 42,1% holatda, Pnevmoqistoz + Citomegalovirusli infeksiya shaklida 27,3% holatda va Pnevmoqistoz + Citomegalovirusli infeksiya + Traxeobronxial kandidoz birga qo'shilgan 4,1% holatda qayd etildi (3-jadval).

3-jadval

OIV infeksiyalı bemorlarda qayd etilayotgan opportunistik kasalliklar etiologik tarkibi, N=121, mutloq, %

№	Opportunistik kasalliklar turi	Miqdori		p
		Mutloq	%±	
1.	Pnevmoqistoz	21	17,4±3,4	p<0,05
2.	Citomegalovirusli infeksiya	51	42,1±4,5	p<0,05
3.	Traxeobronxial kandidoz	11	9,1±2,6	p<0,05
4.	Pnevmoqistoz + Citomegalovirusli infeksiya	33	27,3±4,1	p<0,05
5.	Pnevmoqistoz + Citomegalovirusli infeksiya + Traxeobronxial kandidoz	5	4,1±1,8	p<0,05
	Jami	121	100,0	



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

Pnevmoniozlar jami 59 nafar (48,8%) bemorda aniqlangan, jumladan alohida holatda tadqiq etilgan bemorlarning 21 nafarida (17,4%) kuzatildi.

OIV infeksiyalii bemorlarda qayd etilgan oportunistik kasalliklarning etiologik tarkibida traxeobronxial kandidozning ulushi nisbatan kamroq – jami 13,2% ni (16 holatda), jumladan alohida holatda 9,1% ni (11 nafar) tashkil etdi.

Shu tariqa anglashiladiki, retrospektiv tahlil etilgan oportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyalii bemorlarning (jami 121 nafar) 83 nafarida (68,6%) ikkilamchi kasallik alohida holatda, 38 nafarida (31,4%) turli ko'rinishlardagi mikst holatda kuzatilgan.

OIV infeksiyasining oportunistik kasalliklar bilan asoratlanishida immunitet tanqisligi va virus yuklamasining holati qanday namoyon bo'lishini baholash maqsadida, oportunistik kasalliklarning turi va tabiatiga (alohida yoki bir-necha infeksiyaning qo'shilishiga) ko'ra bemorlarda CD4 + limfotsitlar miqdorining va virus yuklamasining mediana qiymatlari tahlil etildi (4-jadval). 4-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, OIV infeksiyalii bemorlarda vujudga keladigan oportunistik kasalliklarning turi immunitet tanqisligi darajasiga bog'liq hamda alohida bitta ikkilamchi patologiya rivojlanganida CD4+ limfotsitlarining mediana qiymati, bir paytda ikki yoki uch oportunistik kasalliklar rivojlanganidagiga qaraganda yuqori qiymatga ega. CD4+ limfotsitlarining mediana qiymati Pnevmonioz rivojlanishidagiga (163 huj./ml) qaraganda, citomegalovirusli

4-jadval

Turli oportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyasida immunologik va virusologik ko'rsatkichlarning medianasi, N=121

№	Oportunistik kasalliklar turi	Ko'rsatkichlarning mediana qiymati	
		CD4+ limfotsitlar (huj./ml)	OIV yuklamasi (OIV RNK nusxasi/ml)
1.	Pnevmonioz	163	53166
2.	Citomegalovirusli infeksiya	85	81363
3.	Traxeobronxial kandidoz	98	61595
4.	Pnevmonioz + Citomegalovirusli infeksiya	55	166798
5.	Pnevmonioz + Citomegalovirusli infeksiya + Traxeobronxial kandidoz	33	193211

infeksiyada (85 huj./ml) 1,9 marta va traxeobronxial kandidozda (98 huj./ml) 1,7 marta, ya'ni statistik ahamiyatli darajada past. CD4+ limfotsitlarining mediana qiymatidagi mazkur tafovut bir



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

paytda ikki (55 huj./ml) va uch (33 huj./ml) opportunistik kasalliklar rivojlanganida (tegishli 3 marta va 4,9 marta) vanada yaqqol namoyon bo'ladi.

OIV yuklamasining medianasi Pnevmoqistoz rivojlanishidagiga (53166 OIV RNK nusxasi/ml) qaraganda, citomegalovirusli infeksiyada (81363 OIV RNK nusxasi/ml) 1,5 marta va traxeobronxial kandidozda (61595 OIV RNK nusxasi/ml) 1,2 marta yuqori. OIV yuklamasining mediana qiymatidagi mazkur farq bir paytda ikki (166798 OIV RNK nusxasi/ml) va uch (193 211 OIV RNK nusxasi/ml) opportunistik kasalliklar rivojlanganida (tegishli 3,1 marta va 3,6 marta yuqori) vanada yaqqol ko'rinishga ega.

Xulosalar. Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyalı bemorlarning jinsiy tarkibida erkaklar ulushi, ayollar ulushiga qaraganda 2 marta yuqori bo'lib, OIV infeksiyasi bilan umumiy kasallanish tarkibida erkaklar ulushining ustuvorligi, erkaklar o'rtasida sog'liqqa salbiy ta'sir ko'rsatuvchi boshqa xavf omillariga (masalan, anamnezida sudlanganlik, giyohvand moddalarga tobeklik va spirtli ichimliklar suiste'moli va h.) duch kelganlar hissasining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Bemorlarning yosh guruhlari tarkibida 40-49 yosh guruidagi shaxslar hisyasi ustuvorligi, OIV ning birlamchi yuqishi aksariyat sodir bo'ladigan yosh qatlami (o'rtacha 25-35 yosh), va mazkur yosh qatlamida ikkilamchi kasalliklar rivojlanguniga qadar o'tadigan muddat davomiyligi (o'rtacha 10-15 yil) bilan belgilanadi.

Opportunistik kasalliklar bilan asoratlangan OIV infeksiyalı bemorlarning 83 nafarida (68,6%) ikkilamchi kasallik alohida holatda, 38 nafarida (31,4%) turli ko'rinishlardagi mikst holatida kuzatilgan. OIV infeksiyalı bemorlarda qayd etilgan opportunistik kasalliklarning etiologik tarkibida citomegalovirusli infeksiyalar etakhi mavqega ega. Bemorlarning jami - alohida holatda va boshqa opportunistik kasalliklar bilan qo'shilgan holatda - 89 nafarida (73,6%) citomegalovirusli infeksiyalar mavjudligi aniqlandi. Pnevmoqistoz jami 59 nafar (48,8%) bemorda aniqlangan, jumladan tadqiq etilgan bemorlarning 21 nafarida (17,4%) alohida holatda kuzatildi. Traxeobronxial kandidoz jami 16 nafar (13,2%) bemorda, jumladan alohida holatda 11 nafarida (9,1%) qayd etildi.

OIV infeksiyalı bemorlarda vujudga keladigan opportunistik kasalliklarning turi immunitet tanqisligi darajasiga bog'liq hamda alohida bitta ikkilamchi patologiya rivojlanganida CD4+ limfotsitlarining mediana qiymati, bir paytda ikki yoki uch opportunistik kasalliklar rivojlanganidagiga qaraganda yuqori qiymatga ega.

OIV yuklamasining medianasi pnevmoqistozdagiga (53166 OIV RNK nusxasi/ml) qaraganda, citomegalovirusli infeksiyada (81363 OIV RNK nusxasi/ml) 1,5 marta va traxeobronxial



URGANCH DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI JANUBIY OROLBO'YI TIBBIYOT JURNALI

2 - TOM, 3/1 - SON. 2026

14.00.00 - TIBBIYOT FANLARI ISSN: 3093-8740

kandidozda (61595 OIV RNK nusxasi/ml) 1,2 marta yuqori. OIV yuklamasining mediana qiymatidagi mazkur farq, ya'ni pnevmocistozdagiga qaragandagi farq bir paytda ikki (166798 OIV RNK nusxasi/ml) va uch (193 211 OIV RNK nusxasi/ml) opportunistik kasalliklar rivojlanganida (tegishli 3,1 marta va 3,6 marta yuqori) vanada yaqqol ko'rinishga ega.

Shunday qilib, ikkilamchi kasalliklar OIV infeksiyasining kechishiga, oqibatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi, rivojlanish suratinı tezlashtiradi va bemorlarning umr ko'rish davomiyligini qisqartiradi. Shu sababli, OIV bilan kasallangan bemorlarni baholashdagi, olib borishdagi yondashuv kompleks va integrativ tabiatga ega bo'lishi, shuningdek, OIV infeksiyasi hamda ikkilamchi kasalliklarning barvaqt tashxislanishi ta'minlanishi uchun amaliyotchi shifokorlarning OITS bilan bog'liq kasalliklar borasidagi xabardorligi oshirilishi taqazo etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Беляков Н.А., Рассохин В.В. Коморбидные состояния при ВИЧ-инфекции. Часть 1. Основы проблемы. СПб.: Балтийский медицинский образовательный центр; 2018.
2. Ладная Н.Н., Покровский В.В., Соколова Е.В., Чекрыжова Л.Г., Киржанова В.В. Распространение инфекции, вызываемой вирусом иммунодефицита человека, на территориях Российской Федерации в 2021 г. Эпидемиол. инфекц. болезни. *Актуал. вопр.* 2022;12(3):12-18.
3. Доскожаева С.Т. Оппортунистические инфекции и вторичные заболевания при ВИЧ-инфекции // Вестник АГИУВ (Алматинский государственный институт усовершенствования врачей). -№1, 2011. С. 20-22
4. Покровская А.В., Покровский В.В., Акимкин В.Г. Возможности использования каскадной модели медицинской помощи людям, живущим с ВИЧ // Терапевтический архив. 2020. Т. 92, № 11. С. 71–76. doi: 10.26442/00403660.2020.11.000686].
5. Самитова Э. Р. Пневмоцистная пневмония у больных ВИЧ-инфекцией: особенности клиники, диагностики и лечения. Автореферат дисс. на соиск. уч. ст. кандидата медицинских наук.- Москва-2011.-25 с.
6. Тилавбердиев Ш.А., Климко Н.Н., Деннинг Д.В. Использование модели LIFE Program для оценки распространенности тяжелых хронических микотических заболеваний в Республике Узбекистан // Проблемы медицинской микологии. – Россия, 2016. – №3. – С. 3-6. (Impact factor 0,45).
7. Шахгильдян В.И., Ядрихинская М.С., Сафонова А.П. и др. Структура вторичных заболеваний и современные подходы к их лабораторной диагностике у больных ВИЧ-инфекцией. *Эпидемиол. и инфекц. болезни. Актуал. вопр.* 2015;5(1):24-30.
8. Шахгильдян В.И., Ядрихинская М.С., Орловский А.А., Яровая Е.Б. Клиническая, вирусологическая, иммунологическая характеристика госпитализированных больных ВИЧ-инфекцией. Тер. архив. 2018;90(11):18-23.
9. Шахгильдян В.И., Домонова Э.А. и др. Диагностическое значение качественного и количественного определения ДНК ЦМВ в биологических материалах у больных ВИЧ-инфекцией с легочной патологией // Лабораторная служба.-2023, Т. 12, №1, с.7–13 <https://doi.org/10.17116/labs2023120117>